

ARAB VA O'ZBEK TILLARDAGI BOG'LOVCHILARNING QIYOSIY TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15609989>

Mustafoyeva Nargiza Ikrom qizi

Arabshunoslik oliy maktabi stajor-o'qituvchisi

Tel:(90)322-32-98, E-mail: nargiza.mustafayeva@my.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada arab tili grammatikasidagi bog'lovchi va uning ma'nolari tahlil qilinadi hamda arab va o'zbek tilidagi bog'lovchilarning o'zaro o'xshash, farqli tomonlari bayon etiladi.

Kirish so'zlar

Tobe bog'lanish, teng va ergashtiruvchi bog'lovchi, bog'lovchining ma'nolari.

Annotation

This article analyzes the conjunction and its meanings in Arabic grammar, and describes the similarities and differences between conjunctions in Arabic and Uzbek.

Keywords

Subordinate conjunction, equal and subordinate conjunction, meanings of conjunctions.

KIRISH.

Mustaqil so'zlar orasidagi grammatik munosabatlarni ta'minlab, ular orasidagi modal ma'nolarni ifodalovchi lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi. Yordamchi so'zlar garchand mustaqil ma'no ifodalama-da, gapda turli grammatik munosabatlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ular so'zlarni o'zaro biriktirish, so'z va gaplarni bog'lash, so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no berish vazifalarini bajaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Harf so'z turkumiga bag'ishlagan dastlabki asar "الحروف" Muhammad Ja'far al-Kayravaniy tomonidan 1021-yilda yozilgan bo'lib, asar hajmi 1000 sahifadan iborat. Shu bilan birga al-Zajjajiy tomonidan yozilgan "حروف المعان" nomli asar ham harf so'z turkumiga bag'ishlangan dastlabki kitoblardandir ⁵⁷.

⁵⁷ Hacibekoglu A. Arap dilinde edatlarin metinde kurdugu anlamsal iliskiler. – Ankara , 2015. – S. 11.

Bundan tashqari harf soʻz turkumiga bagʻishlab - Abu al-Hasan Ali Iso ar-Rummaniy tomonidan "معاني الحروف", Ibn Qayyum al-Javziy Muhammad Abu Bakr "جواهر الأدب في معرفة كلام العرب", Alaaddin Ali al-Ibriliy "معان الأدوات و الحروف" nomli asarlar yozilgan.

Bugungi kunda ham yordamchi soʻz turkumi yuzasidan ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Hasan Akdag tomonidan yozilgan "Arap dilinde edatlar" nomli arab tilidagi yordamchi soʻzlarga bagʻishlangan kitob yozilgan boʻlib, unda yordamchi soʻzlarning har birining maʼnolari, ishlatilishiga doir maʼlumotlar misollar bilan yoritib berilgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Mustaqil soʻzlar orasidagi grammatik munosabatlarni taʼminlab, ular orasidagi modal maʼnolarni ifodalovchi lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmagan soʻzlar yordamchi soʻzlar deyiladi. Yordamchi soʻzlar garchand mustaqil maʼno ifodalama-da, gapda turli grammatik munosabatlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ular soʻzlarni oʻzaro biriktirish, soʻz va gaplarni bogʻlash, soʻz va gaplarga qoʻshimcha maʼno berish vazifalarini bajaradi.

Maxmud Zamaxshariyning "Muqaddamatul-adab" asarining uchinchi qismi mana shu yordamchi soʻzlarga bagʻishlangan. Ushbu qism sakkiz fasldan iborat boʻlib, ular quyidagilardir:

- 1.الأسماء تجر التي الحروف في فصل. - Ismlarni qaratqich kelishikda boʻlishini talab qiluvchi harflar fasli.
 2. فصل في الحروف التي تنصب الأسماء - Ismlarni tushum kelishigida boʻlishini talab qiluvchi harflar fasli.
 3. اسم bilan ifodalangan egani tushum kelishikda, kesimni "raf" da boʻlishini talab qiluvchi harflar fasli.
 4. اسم bilan ifodalangan egani bosh kelishikda, kesimni nasbda boʻlishini talab qiluvchi ikki harf fasli.
 5. فصل في الحروف التي تنصب المضارع - Hozirgi-kelasi zamon feʼlini "nasb" (fatxali) holatida boʻlishini talab qiluvchi harflar fasli.
 6. فصل في الحروف التي تجزم الفعل - Feʼlni "jazm" (sukunli) holatida boʻlishini talab qiluvchi harflar fasli.
 7. العطف الحروف في فصل. - Bogʻlovchilar fasli
 8. فصل في حروف غير عاملة. - Ism va feʼllarni oʻzgartirmaydigan harflar fasli
- Yuqoridagi aynan yettinchi tur bu عطف ni yuzaga chiqaruvchi bogʻlovchilar hisoblanadi.

Bogʻlovchi yordamida bogʻlangan soʻz معطف عليه oʻzi ergashayotgan soʻz esa معطف deyiladi.

Atflar 2 qismga bo'linadi:

- 1) و، ثمَّ، فَ، حتى، أم، أو - عطف مطلقاً
- 2) بل، لا، لكن - عطف لفظاً

و bog'lovchisi jamlikdan boshqa ma'nolarni ham ifodalashi mumkin va shunday holatlarda ham u o'z vazifasida qoladi.

- Taqsimlash ma'nosida : الكلمة اسم و فعل و حرف (So'z ism yo fe'l yoki harf bo'ladi);

- Ijzat berish, ruxsat ma'nosida
(Hasan yoki Ibn Sirin o'tirsini.);⁵⁸ جالس الحسن و ابن سيرين : أي أحدهما :

- Tanlash, ixtiyor etish
(Ketdi, u uchun sabr toqatni yoki yig'ini tanla). نأث فإختر لها الصبر و البكاء: ma'nolarida

و Yuqoridagi misollarning tarjimasidan aniq bo'ladiki, bunday hollarda bog'lovchisi "va" deb tarjima qilinmaydi balki "yoki" deb tarjima qilinadi, ya'ni bu yerda u biriktiruv bog'lovchini emas balki ayiruv bog'lovchining vazifasini bajaradi va ikki so'zning birining ikkinchisiga ergashib uning holatiga to'liq moslashuvini ta'minlaydi.

و bog'lovchisi bilan birgalikda yuqorida zikr etilgan bog'lovchisi ham so'zlarni bir- biriga bog'lab, bog'lovchisi bajargan vazifani bajaradi, ammo ma'noda u birinchisi ikkinchisidan biroz oldin sodir bo'lganligini, ketma- ketligini ifodalaydi va "ma'tufun alayhi" ga qo'shib yoziladi.

Masalan :

وصل زيدٌ فعليّ - Zayd hamda Ali yetib keldi.

دخل عند السلطان العلماء فالأمرء Sulton huzuriga olimlar hamda amirlar kirishdi.

ثمَّ yordamchisi esa "matufun alayhi " matufdan keyin yuzaga chiqqan ma'noni ifodalaydi, ya'ni ma'tufga nisbatan sekinroq zaifroq amalga oshganini, muddati o'tganligini ifodalaydi.

Masalan:

خرج الشبانُ ثمَّ الشيوخ - Yoshlar, so'ngra qarilar chiqishdi.

انكسر القلمُ ثمَّ الدواة - Qalam, so'ngra qalamdon sindi.

ثمَّ ning farqi shundaki, bog'lovchisi bog'laganda ish-harakat shunchalar ketma-ketlikda sodir bo'ladiki, ular orasida umuman muddat kechmaydi, da esa, aksincha, ular orasida bir muncha muddat kechgan bo'ladi.

Agar "ma'tufun alayhi" jumla holatida bo'lsa, bog'lovchisi asosan sabab ma'nosini, ya'ni birinchi ish-harakatning yuzaga chiqish sabab-natija ma'nosini ifodalayotgan bo'ladi.

الزمخشري. المفصل في علم العربية. - عمان: دار عمار، ٢٠٠٣. - ص. 287.⁵⁸

حتى esa ma'tufdan "ma'tufun alayhi" g'oyatda ziyodaligi yoki noqisligini ifodalab keladi.

Masalan:

مات الناس حتى الأنبياء - Insonlar hatto Nabiylar ham vafot etadi.

قديم الحجاج حتى المشاة - Ziyoratchilar hatto piyodalar ham keldi.

Shuningdek, أو va أم bog'lovchilari ham teng bog'lovchilardan bo'lib, yuqoridagi bog'lovchilar bajargan vazifani bajarishadi. Tarjima jarayonida ularning ikkisi ham "yoki" deb tarjima qilinadi. Ularning farqi ular ifodalayotgan ma'noda va qo'llanish o'rinlaridadir.

أو bog'lovchisi ma'tuf va ma'tuf alayhini taqsimlash, ijizat, ixtiyor etish, ikkisidan birini tanlash ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. أو bog'lovchisi, asosan, buyruq gaplarda ishlatiladi.

Masalan:

تزوج هنداً أو أختها - Hindga yoki uning opasiga uylan.

Yoki fikrni uzatish maqsadida ham ishlatiladi. Masalan:

إذهب إلى دمشق ، أو دع ذلك ، فلا تذهب اليوم ، أي: بل دع ذلك ، bugun ketma .

Ijizat (إباحة) bilan ixtiyor qilishning (تخيير) o'rtasidagi farq shundayki, ijizatda ikkalasidan bittasini yoki ikkalasini ham tanlash imkoniyatiga ega bo'lsa, tanlash ma'nosidagi gapda esa faqat birini qabul qilish mumkin bo'ladi.⁵⁹

Masalan:

جالس العلماء أو الزهاد - Ulamolar yoki zohidlar bilan birga o'tirgin.

Bu gapda ikki jamoa bilan o'tirishni birlashtirish joiz bo'ladi.

Lekin تزوج هنداً أو أختها misolida ikkalasini birlashtirish joiz bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, Ijizat ma'nosini ifodalab kelayotgan ma'tuf va ma'tuf alayhini hukmda birlashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

bog'lovchisi esa gapning umumiy ma'nosini to'ldirib, to'g'rilab keladi. Ularning cheklovchi harflar ham deb atashadi (أَنْ ، بَلْ ، أَمْ ، غَيْرَ). U bo'lishsiz gaplarda qo'llaniladi.

Masalan:

ما ضربت زيدا لكن علياً - Men Zaydni urmadim, lekin Alini urdim.

لا تضرب زيدا لكن علياً : Nahiy (qaytarish) ma'nosida : Zaydni urma, lekin Alini emas.

⁵⁹مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. - دمشق، 2010. - ص. 681.

كن ni bo'lishli gaplarda qo'llay olmaymiz, unda gapdagi ma'no tushunarsiz bo'lib qoladi, ya'ni, ma'no jihatdan gap to'g'ri qurilishga ega bo'lmaydi: جاء زيد كن علي.

Ya'ni, bundan xulosa qilish mumkinki, bog'lovchisi gap bo'laklarini bog'lashi uchun gap bo'lishsizlik shaklida bo'lishi lozim. U bo'lishli gaplarda ham ishtirok etishi mumkin, unda lekin bog'lovchi bo'laklarni emas, balki butun boshli gaplarni bog'lashga xizmat qilayotgan va bog'langan qo'shma gapni hosil qilayotgan bo'ladi.

bog'lovchisi و bog'lovchisi bilan birgalikda ham ifodalanishi mumkin. Lekin uning bunday holati gapdagi vazifasiga ta'sir qilmaydi va ma'noni kuchaytiradi. Ya'ni arab tilida harflar. So'zlar ko'p qo'llanishiga qarab ma'no yanada oshib boraveradi. Aynan shu jihati ham arab tilining o'ziga xos fazilati hisoblanadi.

O'zbek bog'lovchilar qo'llanishiga ko'ra, ikki turli bo'ladi:

1. Yakka bog'lovchilar.
2. Takroriy bog'lovchilar.

Yakka bog'lovchilar uyushgan bo'laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo'llanadi. Bular va, hamda, lekin, biroq, -ki (-kim), chunki, agar, gar, balki, go'yo, basharti, garchi, go'yoki, holbuki, vaholanki.

Takroriy bog'lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o'rinda gap bo'laklari, shuningdek qo'shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi. Bular dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, yo..., yo, yoki..., yoki, ham..., ham, ba'zan..., ba'zan, bir...,bir. Masalan,

U goh dashtdagi otlarning kishnashiga, goh yaqin chodirdagi go'zal kanilarning mayin kulgulariga quloq solib yotarkan, olam beg'ubor bo'lib tuyular edi. (O.YO.)

Yo bir maslahatni aytib bo'ladi, yo ro'zg' or ishni. (CHo'lpon). Dam bobomga, dam uning o'rtog'iga tikilaman. (O.) Dadasi... erkatoy o'g'lining bu arzini eshitib, bir hayratga tushdi, bir quvondi. (O.YO.)

Takroriy bog'lovchilardan (yo,yoki yakka holda) ham qo'llanishi mumkin, (ham, ba'zan, bir) so'zlari esa yakka holda qo'llansa bog'lovchi bo'la olmaydi. Navoiy Xuroson va Movarounnahrda yashamoqda bo'lgan yoki dunyodan ko'z yumgan yuzlarga shoirlarni xotirga oldi. (O.) Bu erda qovun tekin. Uzib beraymi yo o'zingiz uzasizmi? (S.Ahmad).

Arab tilidagi bog'lovchilarga nisbatan ham shunday tarkibiy bo'linishni qo'llay olamiz. Ularning takroriy qo'llanishi gapdagi ma'noni yanada kuchaytiradi.

Bu ham ikkala tildagi bog'lovchilarning mushtarak jihatlaridan biri hisoblanadi.

Bog'lovchilar gapdagi vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

- 1) teng bog'lovchilar;
- 2) ergashtiruvchi bog'lovchilar.

Teng bog'lovchilar grammatik jihatdan teng huquqli gap bo'laklarini va gaplarni o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Masalan, Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir. (Stefan TSveyg). Agar so'zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar. (H.O.)

XULOSA.

Bog'lovchi so'zlar borliqdagi narsa va xususiyatlarning o'zini emas, balki ular o'rtasidagi aloqalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bog'lovchi so'zlar o'zi mustaqil ma'no kasb qila olmaydi. Shunga qaramasdan, yordamchi so'zlarning gapda o'z ahamiyati bor. Yordamchi so'zlar so'zlarni bir-biriga bog'lash, ma'noni ta'kidlash, qo'shimcha ma'no yuklash kabi vazifalarni bajarib, uning bu bajargan vazifasini boshqa so'z turkumlari bajara olmaydi.

Xulosa sifatida ta'kidlashimiz mumkinki, arab va o'zbek tilidagi bog'lovchilarning umumiy jihatlari ko'p bo'lishligi bilan bir qatorda bir necha farqli jihatlari ham mavjud ekanligi namoyon bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Grande B.M. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М., 2001.
2. Hacibekoglu A. Arap dilinde yedatlarin metinde kurdugu anlamsal iliskiler. – Ankara, 2015. – S. 86.
3. Enes Erdim. Arap dilinde zamir uzerine yapilan atifla ilgili tartishmalar. – Turkey, 2018. – S. 128.
4. الزمخشري، المفصل في علم العربية. عمان: دار عمار. 2003
5. مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. دمشق. 2010.